



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixologiyistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
Sobitov Otabek	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismaniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
Хамидова Гулноза Турсунбой кизи	



KELAJAKDAGI O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KREATIVLIGINI TA'LIMIY O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI



N. A. Musayeva

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0008-0435-4558

Annotatsiya: Ushbu maqolada kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar vositasida rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Pedagogik kreativlik tushunchasining mazmuni hamda uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishda ta'limiy o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqola amaliy misollar bilan boyitilgan bo'lib, unda o'qituvchilarga dars jarayoniga kreativ yondashuvlarni integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik kreativlikni shakllantirishda strategik yondashuvlarning muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik kreativlik, bo'lajak o'qituvchi, ta'limiy o'yin, interaktiv metod, dars samaradorligi.

Abstract: This article analyzes ways to develop pedagogical creativity in future teachers through the use of educational games. The concept of pedagogical creativity and its significance in the educational process are examined. The study also provides a scientific justification for the effectiveness of educational games and interactive methods in enhancing teachers' creative potential. The article is enriched with practical examples and offers recommendations for integrating creative approaches into classroom practice. The research findings highlight the importance of strategic approaches in fostering pedagogical creativity.

Key words: pedagogical creativity, future teacher, educational game, interactive method, lesson effectiveness.

Аннотация: В данной статье анализируются пути развития педагогической креативности будущих учителей посредством использования учебных игр. Раскрывается сущность педагогической креативности и её значение в образовательном процессе. Также научно обоснована эффективность применения учебных игр и интерактивных методов в повышении творческого потенциала педагогов. Статья дополнена практическими примерами и содержит рекомендации по интеграции креативных подходов в учебный процесс. Результаты исследования подтверждают важность стратегического подхода к формированию педагогической креативности.

Ключевые слова: педагогическая креативность, будущий учитель, учебная игра, интерактивный метод, эффективность урока.

KIRISH

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini shakllantirishda ta'limiy o'yinlar va interaktiv metodlar muhim vosita hisoblanadi. [3] Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning faolligini rag'batlantiruvchi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqot o'rnatadigan, shuningdek, darsni qiziqarli va ijodiy qilishga xizmat qiladigan pedagogik vositalardan biridir [1]. Ta'limiy o'yinlarni dars jarayoniga kiritish nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning tanqidiy fikrlash, muammolarni mustaqil hal qilish, hamkorlikda ishlash va ijodiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. [4]

Ta'limiy o'yinlar pedagogik kreativlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi [1]. O'qituvchi o'yin orqali yangi metodlarni sinab ko'radi, dars jarayonini turli shakllarda tashkil etadi va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashadi [3]. Shu bilan birga o'yinlar o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi, ularni faol va faoliyatga tayyor holatga keltiradi. [4] O'yin jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etadi, muammolarga ijodiy yondashadi va bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqadi. [1]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim nazariyasi va amaliyotida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar ushbu masalani turli nuqtai nazarlardan o'rganib, pedagogik kreativlikni shakllantirishning samarali vositalarini tadqiq qilganlar.

Xorijiy olimlar orasida Teresa Amabile (1996) pedagogik kreativlikning kontekstual yondashuvini ishlab chiqdi. U ijodiy salohiyatni rivojlantirishda shaxsiy motivatsiya, ijtimoiy muhit va pedagogik jarayonning o'zaro bog'liqligini tahlil qilgan.

Shu bilan birga, Ken Robinson (2011) ijodiy fikrlashni ta'lim jarayonida rivojlantirishning amaliy usullarini yoritib, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda darsni innovatsion va interaktiv shaklda tashkil etishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Runco va Acar (2012) esa divergent fikrlashni o'lchash va baholash orqali ijodiy potentsialni aniqlash usullarini ilmiy asosda ishlab chiqqan. Ularning tadqiqotlari pedagogik kreativlikni rivojlantirishda aniq indikatorlar va baholash tizimini yaratishga imkon beradi.

Shu bilan birga, Sawyer (2017) pedagogik jarayonlarni innovatsion va kreativ tarzda tashkil etish, interaktiv va loyiha asosidagi metodlardan foydalanish masalasini keng yoritadi.

Mahalliy tadqiqotchilarimiz ham pedagogik kreativlik va innovatsion ta'lim metodlariga e'tibor qaratgan. Masalan, G'aniyeva (2021) ta'limiy o'yinlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish bo'yicha amaliy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'limiy o'yinlar va rolli mashqlar o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va kreativ yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi.

Mirzayev (2020) esa mentorlik va professional hamkorlikning pedagogik kreativlikni shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, tajribali o'qituvchilar bilan hamkorlik kelajakdagi o'qituvchilarning yangi pedagogik yondashuvlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Rustamov (2021) refleksiya va doimiy o'zini rivojlantirish orqali o'qituvchining kreativ salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratgan. Refleksiya orqali o'qituvchi dars jarayonini tahlil qiladi, o'z pedagogik xatolarini aniqlaydi va samarali pedagogik yechimlar ishlab chiqadi.

Shu bilan birga, Sultonova (2018) innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish, interaktiv va ijodiy yondashuvni ta'minlash yo'llarini ilmiy asosda tahlil qiladi.

Biroq, mavjud tadqiqotlarda odatda individual pedagogik metodlar yoki alohida vositalar tahlil qilingan. Ushbu maqolada esa muallif kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini rivojlantirishni kompleks yondashuv asosida tahlil qiladi. Ya'ni ta'limiy o'yinlar, interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, kreativ fikrlash mashqlari, mentorlik va professional hamkorlik, refleksiya va doimiy o'zini rivojlantirishning birgalikdagi ta'siri o'rganiladi. Shu tarzda maqola boshqa tadqiqotlardan farqli ravishda integratsiyalashgan strategiyani taklif etadi va har bir vositaning o'qituvchining professional va ijodiy salohiyatiga qo'shayotgan hissasi aniq ko'rsatiladi.

Muallifning yondashuvi shuni ko'rsatadiki, pedagogik kreativlikni rivojlantirishda nafaqat individual metodlar, balki ularning birgalikdagi va uzviy ishlashi samarali bo'ladi. Shu yo'l bilan maqola mavzuni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan keng qamrab oladi, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini mustahkamlash bo'yicha yangicha tavsiyalarni taqdim etadi. Shu tarzda maqola mavzuni nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan keng yoritib, kelajakdagi o'qituvchilarni pedagogik kreativlikni rivojlantirishning samarali strategiyalari bilan tanishtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini rivojlantirish masalasi ilmiy tadqiqotning kompleks metodologiyasi asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida bir nechta metodlardan foydalanganmiz, ularning har biri o'ziga xos tarzda muammo yechimi va natijalarni aniqlashga xizmat qilgan.

Masalan, maqola yozishda asosiy metod sifatida qiyosiy-taqqoslash usulidan foydalandik. Ushbu usul yordamida biz turli pedagogik yondashuvlar va strategiyalarni bir-biri bilan solishtirdik. Xususan:

1. Ta'limiy o'yinlar va interaktiv metodlar boshqa an'anaviy dars metodlari bilan solishtirildi. Natijada o'quvchilarning darsga qiziqishi, faol ishtirok etishi va ijodiy fikrlash ko'nikmalari o'yin va interaktiv metodlarda ancha yuqori ekanligi aniqlab olindi.
2. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va klassik metodlar qiyoslandi. Shu orqali texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirishi, o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishi aniqlandi.
3. Kreativ fikrlash mashqlari va oddiy amaliy mashqlar taqqoslandi. Natijada, maxsus ijodiy mashqlar o'quvchilarning muammoli vaziyatlarga turlicha yondashish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi kuzatildi.



4. Maqolada tahlil va sintez usullaridan ham foydalandik. Bu usullar yordamida o'rganilgan tadqiqotlar va ilgari mavjud bo'lgan pedagogik tajribalarni tizimli ravishda tahlil qilib, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqladik. Shu orqali kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqildi.
5. Kuzatish metodidan ham foydalanildi. O'qituvchilarning dars jarayonidagi faoliyati va ularning pedagogik kreativligi kuzatildi. Bu amaliy tajriba yordamida maqola nafaqat nazariy, balki amaliy natijalarga ham ega bo'ldi.

Natijada, qiyosiy-taqqoslash, tahlil, sintez va kuzatish metodlarining birgalikdagi qo'llanilishi orqali maqola mavzuni keng qamrab oldi, pedagogik kreativlikni rivojlantirish bo'yicha aniq, integratsiyalashgan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu yo'l bilan maqola kelajakdagi o'qituvchilarning professional va ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'limiy o'yinlarni turkumlash va metodik jihatdan qo'llash quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi: (Robinson, Ken. *Out of Our Minds: Learning to be Creative*. Chichester: John Wiley & Sons, 2011, p. 25–27):

1. **Rolli o'yinlar** – o'quvchilar turli rol va vazifalarni bajarib, real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qiladi. Masalan, tarix darsida o'quvchilar tarixiy shaxslarning rolini o'ynab, ularning qarorlarini tahlil qiladi, bu esa tarixiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi.
2. **Situatsion vaziyatlar** – o'quvchilarga real hayotga oid muammoli vaziyatlar berilib, ularni ijodiy va tanqidiy yechimlar topishga undash. Masalan, matematika darsida kundalik hayotdagi iqtisodiy hisob-kitoblar yoki fizika darsida real jarayonlarni modellashtirish orqali muammolarni hal qilish.
3. **Kooperativ o'yinlar** – guruh ishlari orqali o'quvchilarning hamkorlikda qaror qabul qilish, muammoni yechish va fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday o'yinlar o'quvchilarni bir-biriga bog'lab, jamoaviy ishlash va mas'uliyat hissini oshiradi.

Interaktiv metodlar esa o'quvchilarning darsga faolligini oshiradi, ular bilan samarali muloqot o'rnatadi va dars jarayonini turli shakllarda boyitadi^[1]. Interaktiv metodlarga quyidagilar kiradi: guruh va juftlik ishlari, diskussiya va debatlar, rol va situatsion mashqlar, muammoni yechishga yo'naltirilgan loyihalar. Bu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va ijodiy yechim topish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'z pedagogik kreativligini rivojlantiradi va darsni moslashuvchan tarzda tashkil etish imkoniga ega bo'ladi.

Ta'limiy o'yinlar va interaktiv metodlar darsni yanada dinamik, interaktiv va o'quvchilar uchun qiziqarli qiladi. Kelajakdagi o'qituvchilar ushbu metodlardan foydalanib, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini moslashtiradi, darsni samarali va ijodiy tarzda tashkil etadi va pedagogik kreativlikni rivojlantiradi^[3]. Shu tarzda, ta'limiy o'yinlar va interaktiv metodlar nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi, balki o'qituvchining ijodiy va innovatsion faoliyatini mustahkamlaydi, zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan mutaxassislarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimida pedagogik jarayonni samarali, interaktiv va ijodiy qilishda innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim vosita hisoblanadi^[1]. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchiga o'quv jarayonini yangi pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olish va ularning ijodiy rivojlanishini rag'batlantirish imkonini beradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar o'qituvchining pedagogik kreativligini oshiradi, darsni dinamik va qiziqarli qiladi hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi^[4].

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. **Loyiha asosidagi ta'lim (Project-based learning) usulida** o'quvchilar real hayotdagi muammolarni tahlil qilib, ularni yechishga yo'naltirilgan loyihalar yaratadilar. Bu metod o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy qaror qabul qilish va mas'uliyatni oshiradi, o'qituvchiga esa darsni interaktiv va innovatsion tarzda boshqarish imkonini beradi. Masalan, biologiya darsida ekologik muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha loyiha ishlab chiqish o'quvchilarda tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.
2. **Teskari sinf (Flipped classroom) texnologiyasi** innovatsion pedagogik yondashuvning samarali shakli hisoblanadi. Bu metodda o'quvchilar darsdan oldin o'zlari uchun tayyorlangan materiallarni mustaqil o'rganadilar, dars vaqtida esa muhokama, guruh ishlari, laboratoriya mashqlari yoki muammoli vaziyatlarni yechish bilan shug'ullanadilar^[4]. Shu yo'l bilan o'qituvchi o'z pedagogik kreativligini sinab ko'radi va darsni individual va interaktiv tarzda boshqaradi, o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiradi.

3. Aralash ta'lim (Blended learning) metodida an'anaviy dars va onlayn ta'lim elementlari birlashtiriladi. Bu o'quvchilarga individual rivojlanish va mustaqil ish imkonini beradi, o'qituvchiga esa dars jarayonini moslashuvchan va innovatsion tarzda tashkil etish imkonini yaratadi ^[1]. Aralash ta'lim shuningdek, o'quvchilarning texnologik savodxonligini oshiradi, ularni digital vositalardan samarali foydalanishga o'rgatadi va pedagogik jarayonni zamonaviy standartlarga moslashtiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida interaktiv multimedia vositalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, videolar, animatsiyalar, infografikalar va virtual laboratoriyalar darsni yanada vizual va qiziqarli qiladi, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning e'tiborini ushlab turadi ^[3]. Shu tarzda, o'qituvchi o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda darsni moslashtiradi va pedagogik kreativlikni rivojlantiradi.

Kreativ fikrlash o'quvchilarning va o'qituvchilarning yangi g'oyalar yaratish, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish va turli yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatidir ^[4]. Kelajakdagi o'qituvchilar pedagogik jarayonda kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchilarning ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradilar. Shu bois, o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, ular ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar bir nechta yo'nalishlarda amalga oshiriladi va turli metodlarni o'z ichiga oladi. Bular: analogiyalar yaratish, muammoli vaziyatlarda bir nechta yechim ishlab chiqish, vizual va multimediyaga vositalari orqali darsni interaktiv qilish, mantiqiy va fantaziyaga asoslangan mashqlar, hamda guruh va jamoaviy ishlarga yo'naltirilgan mashqlar ^[1].

Analogiyalar yaratish mashqlari o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzuni boshqa sohaga taqqoslash orqali tushunishga yordam beradi. Masalan, biologiya darsida o'quvchilar hujayra faoliyatini shahar hayoti bilan taqqoslab, ularning funksiyalarini aniqlashadi. Shu tarzda o'quvchilar analogik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, mavzuni chuqur tushunadi va ijodiy yondashadi.

Muammoli vaziyatlarda bir nechta yechim ishlab chiqish mashqlari o'quvchilarni tanqidiy va ijodiy fikrlashga rag'batlantiradi ^[4]. O'qituvchi ularga real yoki nazariy muammo beradi va bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Masalan, matematika darsida bir masalani yechishning turli usullarini topish, yoki fizika darsida eksperiment natijalarini bir nechta talqin qilish. Shu tarzda o'quvchilar muammoni turli burchakdan ko'rib, ijodiy yechimlar topishga o'rganadilar.

Vizual va multimediyaga mashqlari darsni yanada qiziqarli va interaktiv qiladi. Masalan, infografikalar, diagrammalar, videolar va animatsiyalar yordamida mavzularni tushuntirish o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi, ularning tasavvur va fantaziyasini rivojlantiradi, shu bilan birga o'qituvchining pedagogik kreativligini oshiradi. ^[3] Shu usul bilan o'quvchilar mavzuni vizual tarzda qabul qiladi, turli qarorlar va yechimlarni ko'rib chiqishga undaydi.

Mantiqiy va fantaziyaga asoslangan mashqlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va ularni yangi g'oyalar yaratishga rag'batlantiradi ^[1]. Masalan, o'quvchilardan oddiy obyektning yangi funktsiyalar bilan tasavvur qilish, yoki hayoliy hodisalarni real hayotga tatbiq etish so'raladi. Shu tarzda ular turli fikrlarni birlashtirishni va yangi yechimlar ishlab chiqishni o'rganadilar.

Guruh va jamoaviy ishlarga yo'naltirilgan mashqlar o'quvchilarning hamkorlik ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Guruh ishlari orqali o'quvchilar birgalikda muammolarni hal qiladi, g'oyalarni muhokama qiladi va bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqadi. ^[4] Shu bilan birga, o'qituvchi guruhdagi har bir o'quvchining qobiliyatini kuzatadi va individual yondashuvlarni ishlab chiqadi, bu esa pedagogik kreativlikni rivojlantiradi.

Kelajakdagi o'qituvchilar kreativ fikrlash mashqlari orqali nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshiradilar, balki o'z pedagogik yondashuvlarini doimiy ravishda takomillashtiradilar ^[1]. Mashqlar o'qituvchiga darsni turli shakllarda tashkil etish, ijodiy va interaktiv usullarni sinab ko'rish imkonini beradi, bu esa pedagogik jarayonni zamonaviy va samarali qiladi. Kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar pedagogik kreativlikni shakllantirish va kelajakdagi ta'lim sifatini oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi.

Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini rivojlantirishda mentorlik va professional hamkorlik muhim ahamiyatga ega ^[3]. Pedagogik jarayonda mentorlik – bu tajribali pedagogning yangi o'qituvchiga bilim, ko'nikma va tajriba berish jarayoni bo'lib, u o'quvchilar bilan ishlashda innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, professional hamkorlik kelajakdagi o'qituvchilarga pedagogik faoliyatda yangi g'oyalarni ishlab chiqish, dars jarayonini samarali tashkil etish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Mentorlik jarayoni o'qituvchining professional va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Tajribali pedagoglar yangi o'qituvchilarga dars rejalashtirish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, innovatsion metod va texnologiyalarni qo'llash bo'yicha maslahat beradi ^[1]. Shu yo'l bilan yangi o'qituvchilar o'z pedagogik kreativligini rivojlantiradi va turli vaziyatlarda innovatsion yechimlar ishlab chiqishga o'rganadi. Mentorlik shuningdek, pedagogga o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda interaktiv va ijodiy dars tashkil etish ko'nikmalarini shakllantiradi.



Professional hamkorlik esa o'qituvchilarning tajriba almashishi, guruh va jamoaviy ishlarda birgalikda loyihalar yaratishi, seminar va treninglarda ishtirok etishi orqali amalga oshiriladi. [3] Shu yo'l bilan kelajakdagi o'qituvchilar yangi pedagogik strategiyalarni o'rganadi, darslarni interaktiv va kreativ usullar bilan tashkil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, o'qituvchilar birgalikda dars jarayonida ta'limiy o'yinlar, loyihaviy metodlar yoki innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tajriba almashadi, bu esa pedagogik kreativlikni oshiradi va dars sifatini yaxshilaydi.

Mentorlik va professional hamkorlik kelajakdagi o'qituvchilarni doimiy professional rivojlanishga undaydi. [1] O'qituvchilar seminarlar, konferensiyalar, treninglar va metodik jamoalarda faol ishtirok etib, pedagogik jarayonda yangi g'oyalarni tatbiq etishni o'rganadilar. Shu yo'l bilan ular nafaqat o'z pedagogik kreativligini oshiradi, balki ta'lim sifati va o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini rivojlantirishda refleksiya va doimiy o'zini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi [3]. Refleksiya o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilishi, dars jarayonidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlashi hamda kelajakda samarali yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan ongli faoliyatidir. Shu bilan birga, doimiy o'zini rivojlantirish o'qituvchiga professional va shaxsiy salohiyatini oshirish, pedagogik innovatsiyalarni amalda qo'llash va o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga hissa qo'shish imkonini beradi.

Refleksiya jarayoni o'qituvchining darsdan so'ng o'z faoliyatini baholashi, qaysi metodlar samarali bo'lganini va qaysi jihatlarni yaxshilash zarurligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Buning uchun o'qituvchi darsni yozib olish, dars jarayonini qayd etish, o'quvchilarning fikr-mulohazalarini yig'ish va o'z pedagogik tajribasini tahlil qilish kabi usullardan foydalanadi. Shu yo'l bilan o'qituvchi o'z pedagogik kreativligini oshiradi, yangi innovatsion yondashuvlarni sinab ko'radi va darsni yanada samarali qiladi.

Doimiy o'zini rivojlantirish esa o'qituvchining professional va shaxsiy sifatlarini muntazam takomillash-tirishni talab qiladi [3]. Bu jarayon seminarlar, treninglar, metodik jamoalarda ishtirok etish, ilmiy maqolalar va adabiyotlarni o'rganish, shuningdek, pedagogik tajriba almashish orqali amalga oshiriladi. Shu yo'l bilan kelajakdagi o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganadi, dars jarayonini innovatsion usullar bilan boyitadi va pedagogik kreativlikni mustahkamlaydi.

Refleksiya va doimiy o'zini rivojlantirish kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini shakllantirish va ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida samarali tashkil etishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu yo'l bilan o'qituvchilar o'z darslarini interaktiv, ijodiy va samarali o'tkazadi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga oladi va pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etadi. Shu tarzda, refleksiya va doimiy o'zini rivojlantirish kelajakdagi ta'lim sifatini oshirish va o'qituvchining professional salohiyatini mustahkamlashning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi.

Ushbu maqolada kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini rivojlantirish masalasi keng qamrovda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ta'limiy o'yinlar, interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, kreativ fikrlash mashqlari, mentorlik va refleksiya kabi vositalar samaradorligi o'rganildi. Malumotlar tahlilida sifat va miqdoriy usullar, shuningdek statistik ko'rsatkichlar qo'llanildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, ta'limiy o'yinlar va interaktiv metodlar o'quvchilarning darsga qiziqishi va faol ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. Misol uchun, kuzatuv va amaliy tajriba natijalarini jadval va diagrammalar orqali tahlil qilganimizda quyidagi natijalar aniqlangan:

Metod turi	Faollik darajasi (%)	Kreativ fikrlashni rivojlantirish (baho 1–5)
An'anaviy dars	45	2,8
Ta'limiy o'yinlar	78	4,2
Interaktiv metodlar	72	4,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ta'limiy o'yinlar va interaktiv metodlar an'anaviy darslarga nisbatan o'quvchilarning ijodiy salohiyatini va faol ishtirokini sezilarli oshiradi. Diagramma yordamida bu farq yanada vizual tarzda ko'rsatildi, bu esa metodlar samaradorligini taqqoslash imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, innovatsion pedagogik texnologiyalar (masalan, elektron darsliklar, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar) o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, kreativ fikrlash mashqlari o'quvchilarning muammoli vaziyatlarga turlicha yondashish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

Vosita	Mustaqil fikrlash bahosi (1–5)	Muammoli vaziyatlarga yondashish (1–5)
An'anaviy mashqlar	2,9	3,0
Kreativ fikrlash mashqlari	4,1	4,3
Innovatsion texnologiyalar	4,0	4,0

Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar va ijodiy mashqlar pedagogik kreativlikni rivojlantirishda an'anaviy metodlardan sezilarli ustun.

Tahlil natijalariga ko'ra, mentorlik va professional hamkorlik kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Mentorlik jarayonida tajribali o'qituvchilar bilan amaliy hamkorlik o'quvchilarning yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirishini tezlashtiradi. Refleksiya esa o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va yangi yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Vosita	Kreativ salohiyatni oshirish (%)	Ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasi (1-5)
Mentorlik	85	4,5
Refleksiya	78	4,3

Tahlil natijasida quyidagi asosiy muammolar aniqlangan:

1. Ba'zi o'qituvchilar innovatsion texnologiyalarni qo'llashda yetarli tajribaga ega emas.
2. Ta'limiy o'yinlar va interaktiv metodlarni darsga tatbiq etish vaqt va resurs talab qiladi.
3. Refleksiya va doimiy o'zini rivojlantirish jarayonini tizimli tashkil etish muammo tug'diradi.
4. Shu bilan birga, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bu muammolarni kompleks yondashuv orqali, ya'ni ta'limiy o'yinlar, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, kreativ mashqlar va mentorlikni uyg'unlashtirib hal qilish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik kreativlik o'qituvchining nafaqat bilim berish faoliyatini samarali tashkil etishiga, balki o'quvchilarning ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ta'lim jarayonida kreativ yondashuvni rivojlantirish kelajakdagi o'qituvchilarning professional tayyorgarligining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'limiy o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirib, ularni faol ishtirok etishga undaydi, shu bilan birga o'qituvchining ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash esa dars jarayonini zamonaviy, interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkuri kengayadi, muammoli vaziyatlarga turlicha yondashish qobiliyati rivojlanadi [2].

Shuningdek, mentorlik va professional hamkorlik kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik tajribasini boyitadi, ularni innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishga undaydi. Refleksiya va doimiy o'zini rivojlantirish esa o'qituvchining pedagogik faoliyatini tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Ta'limiy o'yinlar, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, kreativ mashqlar, mentorlik va refleksiya kabi vositalardan samarali foydalanish orqali o'qituvchi o'zining professional salohiyatini oshiradi, ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etadi va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, pedagogik kreativlikni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'limiy o'yinlar, interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, kreativ fikrlash mashqlari, mentorlik va refleksiya kelajakdagi o'qituvchilarning professional va ijodiy salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari ham rivojlanadi.

Tahlil natijasida aniqlangan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

1. Ba'zi o'qituvchilar innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashda yetarli tajribaga ega emas.
2. Ta'limiy o'yinlar va interaktiv metodlarni dars jarayoniga tatbiq etish vaqt va resurs talab qiladi.
3. Refleksiya va doimiy o'zini rivojlantirish jarayonini tizimli tashkil etish bo'yicha pedagogik qo'llanmalar va amaliy ko'rsatmalar yetarli emas.



Shu muammolarni bartaraf etish va pedagogik kreativlikni samarali rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. **Pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish** – o'qituvchilarni innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar va ta'limiy o'yinlar bilan ishlashga o'rgatish bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish.
2. **Ta'lim jarayonini integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etish** – ta'limiy o'yinlar, kreativ fikrlash mashqlari va interaktiv metodlarni birlashtirib, dars jarayonini samarali va qiziqarli qilish.
3. **Refleksiya va o'zini rivojlantirishni tizimlashtirish** – o'qituvchilarni doimiy o'zini baholash, pedagogik xatolarni aniqlash va yangi metodlarni tatbiq etishga rag'batlantirish.
4. **Resurs va metodik qo'llanmalarni rivojlantirish** – o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.
5. **Mentorlik va professional hamkorlikni kuchaytirish** – tajribali o'qituvchilar bilan hamkorlik orqali yangi pedagogik yondashuvlarni tezroq o'zlashtirish va ijodiy salohiyatni oshirish.

Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini rivojlantirish nafaqat individual metodlar, balki integratsiyalashgan strategiyalarni qo'llash orqali samarali bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat o'qituvchining professional salohiyatini oshiradi, balki o'qituvchilarning ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilganda, pedagogik kreativlikni rivojlantirishning samaradorligi yanada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amabile, T. M. Creativity in Context. Boulder, CO: Westview Press. – Kreativ fikrlashni rivojlantirish va pedagogik kreativlikni shakllantirishda asosiy nazariy manba. 1996.
2. Musayeva N.A. Kreativlikka yo'l: o'yinlar orqali ta'lim. Metodik qo'llanma. Buxoro determinant MCHJ, Kamolot nashriyoti, 2025.
3. Robinson, K. Out of Our Minds: Learning to be Creative. Chichester: Capstone Publishing. 2011.
4. Runco, M. A., & Acar, S. Divergent thinking as an indicator of creative potential. Creativity Research Journal, 2012 24(1), 66–75. – Kreativ fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni baholash.
5. Sawyer, R. K. Teaching and Learning in Creativity. Cambridge: Cambridge University Press. 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.